

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 602 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr .....	8
<b>Baxtiyor Islamov</b>	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati .....	10
<b>Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov</b>	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ...	16
<b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar .....	24
<b>Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich</b>	
Yashil budgetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari .....	30
<b>Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi</b>	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari .....	35
<b>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</b>	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir .....	39
<b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish .....	44
<b>A. X. Salamov</b>	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida .....	48
<b>Dosmuratova Shaxista Kengashovna</b>	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi .....	55
<b>Axmediyeva Aliya Toxtarova</b>	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari .....	63
<b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	67
<b>Shamsiyev Nodir Muratovich</b>	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari.....	72
<b>Shagazatov Oybek bahodirovich</b>	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari .....	76
<b>Davlatov Sanjar Abdimannonovich</b>	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari .....	80
<b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari .....	84
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) .....	89
<b>Yoriyeva Farangiz Murodillayevna</b>	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi.....	94
<b>Nazarova Umida Avazovna</b>	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari .....	98
<b>Mirzaxodjayev Alisher Botirovich</b>	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish .....	103
<b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>	
Surxondardon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati .....	108
<b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili .....	113
<b>Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich</b>	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish .....	119
<b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari .....	123
<b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>	
Razvitiye cifrovoy transformatcii bankovskogo sektora Respublikи Uzbekistan .....	129
<b>Abdurahmanova Matluba Mahamadaminovna</b>	



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
<b>Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich</b>	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....	141
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva</b>	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
<b>Sultonboeva Munira bahodirovna</b>	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
<b>Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</b>	
Vzaimosvazъь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта .....	159
<b>С. С. Алиева, А. Назаров</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b>	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari .....	170
<b>Ergashev Sarvar Xudoynazarovich</b>	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
<b>Зайнутдинова Умидा Джалоловна</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
<b>Qurbanov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
<b>Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li</b>	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
<b>Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
<b>G. Adilova</b>	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
<b>Mardiiev Nurali</b>	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	203
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili .....	207
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari .....	213
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar .....	226
<b>Eshimov Alisher Dusmurodovich</b>	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi) .....	234
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
<b>Rabbimov Elbek Abdulloyevich</b>	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari .....	245
<b>Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li</b>	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
<b>Kenjayev Soxib Sayfiyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budget-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
<b>Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi</b>	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli .....	266
<b>Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li</b>	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
<b>Sobirov Otabeck Olimjonovich</b>	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	277
<b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish .....	281
<b>Normo'minov Temurbek Sheraliyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari .....	284
<b>To'ychiyev Otabek Shamshihevich</b>	
Vençur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda vençur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b>	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li</b>	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
<b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari.....	302
<b>Abdullahayev Boburjon Akbaralievich</b>	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	306
<b>Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	310
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
<b>O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov</b>	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation .....	319
<b>Mukhlisa Ikramova</b>	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri .....	325
<b>Yusupov Muhammadali Sohib o'g'li, J.D. Xojiyev</b>	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
<b>Kadirova Sharofat Amonovna</b>	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирийўлайўловчи" .....	332
<b>H. З. Кахарова</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	337
<b>Sharipov Bobur Anvar o'g'li</b>	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish .....	342
<b>Musyeva Shoiria Azimovna</b>	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.....	348
<b>M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova</b>	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
<b>Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova</b>	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati .....	357
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Fao tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari .....	362
<b>Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari .....	369
<b>Tursunova Shaxnoza Farxod qizi</b>	
Процессы цифровизации АО "Худугазта'minot" .....	373
<b>Хусанов Каҳрамон Нишонович</b>	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
<b>Abdullahayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi .....	381
<b>Bobayev Isroijon Abdinabiyevich</b>	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b>	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
<b>Sh. Madraimov</b>	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida .....	397
<b>Xasanova Lola Mamasharifovna</b>	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	400
<b>B. B. Berkinov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
<b>G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li</b>	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
<b>Karimov Bekzodjon Ilhomovich</b>	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari .....	420
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
Финансы или корпоративные финансы .....	426
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features .....	432
<b>Akhunova Shakhistikhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi</b>	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	437
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash .....	448
<b>S. B. Inoyatov</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari .....	453
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....	460
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	463
<b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি .....	469
<b>Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova</b>	
Tijorat banklari o'rtaqidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....	473
<b>M. Yuldasheva</b>	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....	480
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....	487
<b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi .....	492
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....	499
<b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....	503
<b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	510
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммадович</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....	522
<b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lrim sifatiga ta'siri .....	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari .....	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi .....	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....	564
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
Nabiiev Feruz Nurmurodovich	
Fundamentals of Innovative Management and its Organizational Control .....	597
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamatovich	



# QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTINI BAHOLASH VA HISOBGA OLİSHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Boltayev Abror Sayitmuradovich

PhD, Fiskal institut

"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi mudiri, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalalari bayon qilingan. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo'shimcha daromadlarni hisobga olishda foydalanish uchun ishchi schotlar taklif qilingan va xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsuloti, tovar-moddiy zaxiralar, tayyor mahsulot, tushum, daromad, xarajat, tannarx, moliyaviy natija.

**Abstract:** This article discusses issues of improving the methodological aspects of assessing and accounting for agricultural products. In particular, working accounts were proposed and conclusions were drawn up for use when taking into account the valuation of agricultural products, income when accounting for revenue recognized on receipts and additional revenue recognized on the sale of agricultural products.

**Key words:** agriculture, agricultural products, inventory, finished products, revenue, income, expenses, cost, financial result.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования методических аспектов оценки и учета сельскохозяйственной продукции. В частности, были предложены рабочие счета и составлены выводы для использования при учете оценки сельскохозяйственной продукции, доходов при учете выручки признанной по поступлениям и дополнительной выручки признанной по реализации сельскохозяйственной продукции.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, сельскохозяйственная продукция, товарное материальные запасы, готовая продукция, выручка, доход, затраты, себестоимость, финансовый результат.

## KIRISH

Qishloq xo'jaligi faoliyati biologik va tabiiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatning murakkab shakllaridan bo'lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni esa xom-ashyoga bo'lgan talabini ta'minlovchi mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni jadallashtirish, qulay iqtisodiy muhitni yaratish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha bir qator ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, ularning ijrosi o'zining ijobjiy samarasini berib kelmoqda. Albatta, qishloq xo'jaligi faoliyatining samaradorligi ma'lum bir miqdor va sifat ko'rsatkichlari yordamida o'lchanadi. Mazkur ko'rsatkichlarning aniq shakllanishi va axborotdan foydalanuvchi tomonidan oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanilayotgan biologik aktivlardan olinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'g'ri baholash va hisobga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, milliy hisob tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy qilinishi ham qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Albatta, qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari o'z asarlarida asosan buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olish masalalarini bayon qilishgan. So'nggi yillarda milliy hisob tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning joriy qilinishi natijasida, iqtisodchi olimlar tomonidan



ham MHXS asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishning ayrim jihatlari tadqiq qilib o'rganilmoqda. Jumladan, iqtisodchi olim F.T.Temirov ko'p tarmoqla fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra aynan biologik aktivlar va ulardan olingen qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobini amaliy qo'llash istiqbollarini bayon etgan holda quyidagi xulosalarga kelinganligini ta'kidlaydi: "Eksport bilan shug'ullanuvchi ko'p tapmoqli fepmer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritish taklif etildi. Natijada biologik aktivlar tasnifi ishlab chiqildi hamda biologik aktivlarni (hayvonlarni) hisobga olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning ketma-ketlik sxemasi ishlab chiqildi. Shuningdek, biologik avtivlarning biotransformatsiyasidan moliyaviy natjalarni shakllantirish algoritmi yaratildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, yuqoridaq mezonlar bo'yicha axborot bazasi buxgalteriya hisobi bo'lib, uni avtomatlashtirish va kuchli tahliillar yordamida maksimal aniqlik proqnozi bilan haqqoniy qiymatni obyektiv belgilaydi. Aktivning qiymati foydalilik va maqsadga muvofiqlikni (yetishtirish yoki ishlab chiqarish) hisobga olgan holda shakllanadi".

Iqtisodchi olim B.Yu.Menglikulov<sup>2</sup> tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadi, u asosan chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va audit metodologiyasini takomillashtirish masalalarini o'rgangan. Xususan, iqtisodchi olim tomonidan sut yo'nalihsidagi qoramolchilikda mahsulotlar tannarxini aniqlash uchun "sut chorvachiligidagi mahsulotlar tannarxini hisoblashning koeffitsiyent usuli" va "sog'in sigirlarni saqlash xarajatlarini sut va naslga ulardagi metobolik energiyaga proporsional taqsimlash tartibi" tavsiya etilgan. Uning fikriga ko'ra, berilgan tavsiyalar sut qoramolchiligidagi sutning va naslning tannarxini to'g'ri va haqqoniy aniqlash imkonini beradi. Iqtisodchi olim tomonidan biologik aktivlardan olingen qishloq xo'jaligi mahsulotini tan olish, baholash, foya va zararlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari o'rganilmagan.

Iqtisodchi olimlar R.D.Dusmuratov va N.K.Rizayevlar tomonidan 41-son "Qishloq xo'jaligi" BHXSning maqsadi, uni amal qilish sohalari hamda respublika agrar sohasida uni qo'llash masalalarini tadqiq qilish asosida xulosa va takliflarini bayon qilishgan. Xususan, ular "... qishloq xo'jaligi hosilini sotish xarajatlari chegirib tashlangandagi haqqoniy qiymatda dastlabki tan olish natijasida vujudga keladigan foya yoki zarar u qaysi davrda vujudga kelgan bo'lsa, o'sha davrning foya yoki zarari tarkibiga kiritiladi. Bunda qishloq xo'jaligi hosilini dastlabki tan olishdagi foya yoki zarar ularni yig'ishtirish natijasida vujudga kelishi mumkin"<sup>3</sup> deb ta'kidlaydi. Biroq iqtisodchi olimlar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotini sotish xarajatlari chegirib tashlangan haqqoniy qiymatda dastlabki tan olish natijasida vujudga keladigan foya va zararlar buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinishi to'g'risidagi yondashuvlari keltirib o'tilmagan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan farqli ravishda xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotini tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari bo'yicha ko'proq tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va uning natjalari bo'yicha taklif va tavsiyalar shakllantirilgan. Jumladan, Z.I. Kruglyak<sup>4</sup> tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini haqqoniy qiymatda baholash va hisobga olishga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan. Unda muallif biologik aktivlardan olingen qishloq xo'jaligi mahsulotini tayyor mahsulot sifatida tan olish va baholash masalalarini Rossiya buxgalteriya hisobi standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qiyosiy tahlil qilish asosida o'z fikrlarini keltirib o'tgan. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini haqqoniy qiymatda baholashning bozor yondashuvi usulini e'tirof etgan holda undan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini haqqoniy qiymatda baholash, hisob registrlarida hisobga olish tartibini tavsiya qiladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini haqqoniy qiymat bo'yicha hisobga olish modelini taklif etadi. Uning fikricha, tadqiqot natjalari asosida berilgan taklif va tavsiyalarning amaliyatga joriy etilishi moliyaviy ma'lumotlarning sifat xususiyatlarini yaxshilaydi va tadbirkorlik subyektining moliyaviy holati, ularning to'lov qobiliyati va faoliyat natjalalarini obyektiv baholash imkonini beradi.

Treba Marsh, Mary Fischerlar<sup>5</sup> ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hisobga olish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lib, ular tadqiqot natjalari asosida qishloq xo'jaligi aktivlari va mahsulotlari hisobi bo'yicha AQSH va xalqaro buxgalteriya hisobi va hisoboti o'rtaсидаги тизими farqlarni ko'rsatib beradi. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotini tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini ko'rsatib o'tishgan. Mualliflar qishloq xo'jaligi mahsulotini hisobga olishda AQSH milliy hisob tizimi va 41-son "Qishloq xo'jaligi" BHXS o'rtaсидаги farqlarni, bunda ham asosan baholashdagli farqlarni ochib bergen. Tadqiqot natjalalarini yakunida

- 1 Temirov F.T. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021. – 26 b.
- 2 Menglikulov B. YU. Chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2023. – 34 b.
- 3 R.D.Dusmuratov, N.K.Rizayev. Agrar sohada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: nazariya va amaliyat. "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnalı. I son. 2020.– 21 bet.
- 4 Кругляк З.И. Учет и оценка сельскохозяйственной продукции по справедливой стоимости. Всероссийский журнал. Вестник Академии знаний №28(5) 2018. 149-157 ст
- 5 Treba Marsh, Mary Fischer Accounting for Agricultural Products: US Versus IFRS GAAP. Journal of Business & Economics Research – February 2013 Volume 11, Number 2. 79-86 p.



qishloq xo'jaligi mahsuloti 41-son "Qishloq xo'jaligi" BHXS asosida tan olinishi, baholanishi va hisobga olinishi axborotdan foydalanuvchi uchun ahamiyatli bo'lishini ta'kidlashgan.

Ildikó Orbán Mrs. Tamás Dékán va Ágota Kisslarning<sup>6</sup> yozishicha, 41-“Qishloq xo'jaligi” BHXS qishloq xo'jaligi faoliyati hisobini belgilaydi. U biologik aktivlar (tirik o'simliklar va hayvonlar), qishloq xo'jaligi mahsulotlari (biologik aktivlardan olingen mahsulot) va qishloq xo'jaligi mahsulotini yig'ib olishdan keyingi qayta ishlash natijasi bo'lgan mahsulotlar o'rtaisdagi farqlanishlarni ochib beradi. Ularning fikriga ko'ra, o'rim-yig'im nuqtasida qishloq xo'jaligi mahsulotining qiymati kutilayotgan sotish xarajatlarini hisobga olmaganda uning haqqoniy qiymati hisoblanadi va o'sha paytda bu qiymat 2-“Zaxiralar” BHXS maqsadlari uchun mahsulot tannarxi hisoblanadi.

Iqtisodchi olima L.I.Kulikova<sup>7</sup> ham biologik aktivlarni va ulardan olinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tan olish va baholash masalalarini tadqiq qilib o'rgangan. Xususan, iqtisodchi olima kompaniya biologik aktivlarni yoki qishloq xo'jaligi mahsulotini tan olish shartlarini, ularni baholashda haqqoniy qiymat va sotish xarajatlarini tavsiflab bergan. Shuningdek, biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarni dastlabki tan olishdagi foya va zararlarni aniqlash hamda buxgalteriya hisobida olish tartibini amaliy misollar yordamida ko'rsatib bergen. Iqtisodchi olima tomonidan biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash bo'yicha berilgan yondashuvlar faol bozor mavjud bo'lgan holatda ko'rsatilgan xolos.

A.Ye.Viruchayeva<sup>8</sup> tomonidan biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarida aks ettirishni ta'minlash uchun buxgalteriya hisoboti shakllariga o'zgartirish kiritish taklif etiladi. Jumladan, “Foya va zararlar to'g'risidagi hisobot”da biologik aktivlar va qishloq xo'jalik mahsulotlarni sotish sarflari chegirilgan haqqoniy qiymatda dastlabki tan olishda, shuningdek, sotish sarflari chegirilgan haqqoniy qiymatning o'zgarishi natijasida joriy davrda yuzaga kelgan foya yoki zararlarning umumiyligi summasini oshkor qilishni hamda buxgalteriya balansi, foya va zararlar to'g'risidagi hisobotga tushuntirishlar shaklini tavsiya etadi. Uning fikricha, buxgalteriya hisobotida biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarning oshkor etilishi 41-son “Qishloq xo'jaligi” BHXS talablariga muvofiqligini va moliyaviy hisobotning shaffofligini ta'minlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalasini tadqiq qilishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakkantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va darr oralig'ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, tadbirkorik subyektlarda mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini 4-son “Tovar-moddiy zaxiralar” buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) belgilaydi. Mazkur standartda belgilangan talablarga muvofiq tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jalik faoliyatidan olingen qishloq xo'jalik mahsulotlarini tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishni tashkil etadi.

Monografik tadqiqot obyekti bo'lgan “MEHNAT BAXTLI SUT” mas'uliyati cheklangan jamiyati (MCHJ) ham 4-son BHMS talablari asosida biologik aktivlardan olingen qishloq xo'jalik mahsulotlarini hisobga oladi. Ya'ni, MCHJda biologik aktivlardan olingen qishloq xo'jalik mahsulotlari hisobot davri davomida reja tannarxi bo'yicha baholangan holda kirim qilinadi. Hisobot davri oxirida qishloq xo'jaligi faoliyati uchun qilingan xarajatlarini olingen qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmiga nisbatan hisob-kitob qilish asosida hisobot kalkulyatsiyalarini tuzish orqali haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Shundan so'ng, qishloq xo'jaligi mahsuloti turlari bo'yicha reja va haqiqiy tannarx o'rtaisdagi tafovut aniqlanadi hamda uning summasiga tuzatish kirituvchi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotining haqiqiy tannarxi reja tannarxidan oshiqcha bo'lganda mahsulot qiymati tafovut summasiga oshiriladi. Agarda haqiqiy tannarx reja tannarxidan past bo'lsa, mahsulot qiymati tafovut summasiga kamaytiriladi. Mazkur tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlaridan keyin hisobot davrida qishloq xo'jaligi faoliyatidan olingen qishloq xo'jaligi mahsulotining haqiqiy tannarxi bo'yicha hisobga olinadi. Bundan ko'rinadiki, “MEHNAT BAXTLI SUT” MCHJda biologik aktivlardan olingen qishloq xo'jalik mahsulotlari haqiqiy tannarx bo'yicha baholangan holda hisobga olinadi. Shuningdek, monografik tadqiqot obyekti his-

<sup>6</sup> Ildikó Orbán Mrs. Tamás Dékán and Ágota Kiss. Measurement of agricultural activities according to the International Financial Reporting Standards / Procedia Economics and Finance 32 (2015) 777 – 783

<sup>7</sup> Куликова Л.И. Международные стандарты финансовой отчетности. Нефинансовые активы организаций: учеб. пособие. -М.: ИНФРА-М, 2012. – 352 с.

<sup>8</sup> Выручаева А.Е. Развитие бухгалтерского учета биологических активов и сельскохозяйственной продукции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2011. – 19 ст.



oblangan “KATTAQO‘RG‘ON YOG‘-MOY” va “URGANCH YOG‘-MOY” aksiyadorlik jamiyatlarida ham biologik aktivlardan olingen qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxi bo‘yicha baholangan holda hisobga olinayotganligini kuzatish mumkin. Fikrimizcha, monografik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan aksiyadorlik jamiyatlarining hisob tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari joriy qilinganligi bois, qishloq xo‘jaligi mahsulotini 41-son “Qishloq xo‘jaligi” BHXSga muvofiq baholashi lozim. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti bu biologik aktivlardan olingen mahsulot bo‘lib, 41-son BHXSga asosan quyidagi shartlar bajarilganda tan olinishi lozim:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotini o‘tgan hodisalar natijasida nazorat qilsa;
- qishloq xo‘jaligi mahsuloti bilan bog‘liq kelgusida iqtisodiy naflar kelish ehtimoli mayjud bo‘lsa;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotining haqqoniy qiymati yoki boshlang‘ich qiymati ishonchli baholansa.

Shuningdek, mazkur BHXSga muvofiq tadbirkorlik subyekti biologik aktivlardan olingen qishloq xo‘jaligi mahsulotini, uni yig‘ish paytida sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatda baholashi lozim. Bunday baholash qishloq xo‘jaligi mahsulotining 2-son “Zaxiralar” BHXSni qo’lllash sanasida boshlang‘ich qiymati hisoblanadi.

Shu o‘rinda, milliy amaliyotga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, MHXS asosida moliyaviy hisobotni tayyorlovchi tadbirkorlik subyektlarida biologik aktivlardan olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotining mavjudligi va harakati to‘g’risidagi axborotlarni umumlashtirish tartibi quyidacha amalga oshirilmoqda:

- birinchi guruh 21-son BHMSda belgilangan 2800-“Tayyor mahsulot” schotidan foydalangan holda uning tarkibida tegishli analitik schotlarni ochgan holda yuritmoqda;
- ikkinchi guruh 21-son BHMSda belgilangan schotlarga MHXS talablari asosida tegishli schotlarni qo’shish va o‘zgartirishlar kiritish orqali, xususan qishloq xo‘jaligi mahsulotining mavjudligi va harakati to‘g’risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun ham MHXS bo‘yicha “Ishchi schotlar rejas”ni ishlab chiqib yuritmoqda;
- uchinchi guruh tadbirkorlik subyektlari vakolatli organ tomonidan tavsiya etilgan namunaviy schotlar rejasidan foydalanmoqda. Ushbu namunaviy schotlar rejas, tadbirkorlik subyektlariga vakolatli organ bo‘lgan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan MHXSda belgilangan talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va tavsiya qilingan. Unga ko‘ra qishloq xo‘jaligi mahsulotining mavjudligi va harakati to‘g’risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

Biroq, vakolatli organ tomonidan mazkur tavsiya etilgan namunaviy schotlar rejasida yuqorida ta’kidlangan schotlarning boshqa schotlar bilan bog‘lanishi qanday tartibda amalga oshirilishi ko‘rsatilmagan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarida biologik aktivlardan olingen qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘im paytida va sotishda, ular bilan bog‘liq daromad va xarajatlarni ham asosiy faoliyat xarajatlari va daromadlari sifatida tan olingen holda moliyaviy hisobotda mahsulot sotishdan olingen sof tushum va sotilgan mahsulotlar tannarxida aks ettilmoqda. Fikrimizcha, bunday yondashuv to‘g’ri yondashuv hisoblanmaydi. Chunki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan va sotishda tan olinadigan daromadlarning bunday tartibi axborotdan foydalanuvchilarga ishonchli ma’lumot olish va boshqaruvga oqilona qarorlar qabul qilish imkonini bermaydi. Shu bois, tadbirkorlik subyektlarida biologik aktivlardan olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo’shimcha daromadlarni to‘g’ri hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish maqsadida hisob siyosatining elementi bo‘lgan “Ishchi schotlar rejas”da alohida quyidagi schotlarni ochishni taklif etamiz (1-jadval).

Schot raqami	Schotlar nomi	Schot turi	Tavsifi
2000	Zaxiralar		
2030	Tayyor mahsulotlar	A	Bu schotdan tayyor maxsulotlar hisobi uchun foydalilanadi;
2600	Qisqa muddatli biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsuloti		
2640	Yig‘ish paytidagi qishloq xo‘jaligi mahsuloti	A	Bu schotdan biologik aktivlardan olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini hisobga olishda foydalilanadi.

Ushbu taklif etilayotgan schotlar hisobot davri oxirida 8000 – “Davr uchun foya va zarar” schoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va



sotishda tan olinadigan qo'shimcha daromadlar yuqorida taklif etilgan schotlardan foydalanib, buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

- Qishloq xo'jaligi faoliyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olinganda:

Debet 7040 – “Qishloq xo'jaligi faoliyati xarajatlari” schoti;

Kredit Qishloq xo'jaligi faoliyati uchun sarflangan moddiy va mehnat resurslari hamda boshqa xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar.

- Yig'imdan oldin qishloq xo'jaligi mahsuloti sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniyligini qiymatda baholab tan olinganda:

Debet 2640 – “Yig'ish paytidagi qishloq xo'jaligi mahsuloti” schoti;

Kredit 6060 – “Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar” schoti.

- Yig'im paytida qishloq xo'jaligi mahsulotining sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniyligini qiymatning o'zgarishi natijasida:

3.1. Qishloq xo'jaligi mahsuloti sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniyligini qiymatining ortishidan daromad (yig'im paytida baholangan sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniyligini qiymat summasining yig'imdan oldingi summasi o'rtaida farq summasi) tan olinganda:

Debet 2640 – “Yig'ish paytidagi qishloq xo'jaligi mahsuloti” schoti;

Kredit 6060 – “Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar” schoti.

**1-jadval:** Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo'shimcha daromadlarni hisobga olishda foydalanish uchun taklif qilinayotgan schotlar<sup>9</sup>

Schot raqami	Schotlar nomi	Schot turi	Tavsifi
6000	Daromadlar		
6060	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar	T	Bu schotdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar summasini hisobga olishda foydalilanadi.
6070	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda tan olinadigan qo'shimcha daromadlar	T	Bu schotdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda tan olinadigan qo'shimcha daromadlar summasini hisobga olishda foydalilanadi.

- Qishloq xo'jaligi mahsuloti sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniyligini qiymatining kamayish summasi (yig'im paytida baholangan sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniyligini qiymat summasining yig'imdan oldingi summasi o'rtaida salbiy farq summasi) tan olinganda:

Debet 6060 – “Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar” schoti;

Kredit 2640 – “Yig'ish paytidagi qishloq xo'jaligi mahsuloti” schoti.

- Qishloq xo'jaligi mahsulotini sotishdan qo'shimcha daromad tan olinganda:

Debet 2110 – “Xaridor va buyurtmachilarning qisqa muddatli debitorlik qarzi” schoti;

Kredit 2640 – “Yig'ish paytidagi qishloq xo'jaligi mahsuloti” schoti;

Kredit 6070 – “Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda tan olinadigan qo'shimcha daromadlar” schoti.

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo'shimcha daromadlarni hisobga oluvchi schotlarning davr uchun foya va zararni hisobga oluvchi schot bilan bog'langan holda yopilishi quyidagicha aks ettiriladi:

<sup>9</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



5 a). Daromadlarni hisobga oluvchi schotlarning yopilishi:

Debet 6060 – “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar” schoti;

Debet 6070 – “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda tan olinadigan qo‘srimcha daromadlar” schoti;

Kredit 8000 – “Davr uchun foyda va zarar” schoti.


5 b). Xarajatlarni hisobga oluvchi schotlarning yopilishi:

Debet 8000 – “Davr uchun foyda va zarar” schoti;

Kredit 7040 – “Qishloq xo‘jaligi faoliyati xarajatlari” schoti.

Shuni ta’kidlab o’tmoqchimizki, yuqorida taklif etilgan schotlarning tartib raqamlaridan tadbirkorlik subyektlari foydalanmasliklari mumkin. Chunki, har bitta tadbirkorlik subyektida hisob siyosatining tarkibiy elementi sifatida tasdiqlangan “Ishchi schotlar rejasi” mavjud. Shu bois, mazkur “Ishchi schotlar rejasi”ga mos schot raqamini kiritgan holda taklif etilayotgan schotlarning nomlanishi bo‘yicha aks ettirilishi maqsadga muvofiq hisoblaniadi.

Shunday qilib, tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo‘srimcha daromadlarni hisobga olish hamda ular bilan bog‘liq moliyaviy natijalarni shakllantirish algoritmini quyidagicha aks ettirish mumkin (1-rasm).



1-rasm: Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilish va sotishda tan olinadigan daromadlarni hisobga olish hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish algoritmi<sup>10</sup>

10 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik subyektlarining biologik aktivlаридан олинган qishloq xo'jaligi mahsulotini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo'shimcha daromadlarni hisobga olishda foydalanish uchun taklif qilinayotgan schotlarning amaliyotga joriy qilinishi quyidagilarga imkon beradi:

- tadbirkorlik subyekti hisob siyosatining elementi sifatida "Ishchi schotlar rejası"ni yanada takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar summasini alohida hisobga olish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda tan olinadigan qo'shimcha daromadlar summasini alohida hisobga olish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilish va sotish bilan bog'liq moliyaviy natijalarni to'g'ri shakllantirish, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchlilik darajasini yanada oshirish.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. 41-son "Qishloq xo'jaligi" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. <https://lex.uz/uz/docs/6312360> (07.03.2024)
2. 2-son "Zaxiralar" Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. <https://lex.uz/uz/docs/6312360> (07.03.2024)
3. 4-son "Tovar-moddiy zaxiralar" Buxgalteriya hisobining milliy standarti. <https://lex.uz/docs/4890446> (07.03.2024)
4. 21-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejası va uni qo'llash bo'yicha yo'rinqoma" Buxgalteriya hisobining milliy standarti. <https://lex.uz/acts/417624> (07.03.24)
5. Выручаева А.Е. Развитие бухгалтерского учета биологических активов и сельскохозяйственной продукции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2011. – 19 ст.
6. Dusmuratov R.D., Rizayev N.K.. Agrar sohada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: nazariya va amaliyot. "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali. I son. – 2020.-21 bet.
7. Кругляк З.И. Учет и оценка сельскохозяйственной продукции по справедливой стоимости. Всероссийский журнал. Вестник Академии знаний №28(5) 2018. – 149-157 ст.
8. Куликова Л.И. Международные стандарты финансовой отчетности. Нефинансовые активы организаций: учеб. пособие. -М.: ИНФРА-М, – 2012. – 352 с.
9. Menglikulov B.Yu. Chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2023. – 34 b.
10. Temirov F.T. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021. – 26 b.
11. Treba Marsh, Mary Fischer Accounting for Agricultural Products: US Versus IFRS GAAP. Journal of Business & Economics Research – February 2013 Volume 11, Number 2. – 79-86 p.
12. Ildikó Orbán Mrs. Tamás Dékán and Ágota Kiss. Measurement of agricultural activities according to the International Financial Reporting Standards / Procedia Economics and Finance 32 (2015) 777–783.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.